

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.S.Turdiyev

O'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlar
tahlili 182

B.E.Xusanov

Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari 187

F.M.O'sarov

Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash
mezonlari 190

F.F.Dadaboyev

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq
etishning nazariy-metodologik asoslari 193

Sh.Sh.Dadaxanov

O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlari tamoyilini shakllantirishning
ijtimoiy-falsafiy jihatlari 201

SIYOSAT**J.Q.Yusubov**

Davlat xizmatida yetuk kadrlarni shakllanishi – mamlakat taraqqiyotining asosi 206

B.Yalgashev

"Siyosiy falsafa" va "Siyosat falsafasi" o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari 210

A.Xamdamov

Fuqarolik jamiyati bilan bog'liq zamonaviy konsepsiyalarning mohiyati 214

TARIX**B.A.Usmonov**

Amir Temurning Xitoy yurishiga oid ba'zi mulohazalar 219

A.Н.Адыгезалов

Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках гуум 224

F.X.Utayeva, M.A.Muxamedjonova

To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni 231

A.H.Boltayev

V.A.Shishkinning shaxsiy arxiviga bir nazar 235

G'.R.Mirzayev

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning yaqin qo'shnichilik va o'zaro
ishonchga asoslangan hamkorligi 239

O.N.Nasirov

Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi 249

O.I.Rajabov

Shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlar 253

П.Х.Исмоилова

Деятельность отделения русско-азиатского банка в Туркестане в конце XIX в начале
XX века 257

H.S.Yusupov

Otaniyozi Xo'janiyoz o'g'li Niyoziyining mudarrislik faoliyati 262

Sh.Y.Oxunjonova

Toshkent shahri bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining
ijtimoiy tarkibi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1990-2024 yillar) 265

A.R.Nurmatov, D.X.Boydedayev

Imom al-Buxoriy- buyuk muhaddis olim 272

П.Х.Исмоилова

Банковская деятельность в Ферганской долине: возникновение и ее предпосылки
в XIX—XX веках 276

G.X.Xasanboyeva

O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi sug'orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar
(1950-1970 yillar) 281

**O'ZBEKİSTONDA QISHLOQ XO'JALIGIDAGI SUG'ORISH TİZİMİ HAQIDA AYRIM
FIKR-MULOHAZALAR (1950-1970-YILLAR)**

**SOME VIEWS ON THE SYSTEM OF AGRICULTURAL IRRIGATION IN UZBEKISTAN
(1950S-1970S)**

**НЕКОТОРЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА СИСТЕМУ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ОРОШЕНИЯ
В УЗБЕКИСТАНЕ (1950-1970-Е ГГ)**

Xasanboyeva Gulxayo Ximmat qizi¹

¹Farg'ona davlat universiteti tarix fakulteti O'zbekiston tarixi kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sovet hokimiyyati yillarda O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligining asosi bo'lgan sug'orish tizimining ahvoli haqida arxiv materiallari va ilmiy adabiyotlarga tayanib ma'lumotlar berilgan. Maqolada sovet hokimiyyatining amalga oshirgan agrar siyosati tufayli sug'orish tizimidagi o'zgarishlar yoritib berilgan. Xususan, paxta yakkahokimligining o'rnatilishi sug'orish tizimini yanada kengaytirdi. Chunki, yangi yerlarning o'zlashtirilishi va paxta maydonlarining tashkil etilishi sug'orish tizimining kengaytirilishiga olib keldi. Natijada respublikaning ko'p hududlarida yangi ariq va kanallar barpo etildi, eskilari esa qayta ta'mirlandi. Suv inshootlari qo'riq yerlarni o'zlashtirish imkonini bergan bo'lsa-da, ayni bu ishlarni amalga oshirish respublika aholisi uchun salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqargan. Sovet hokimiyyati yillarda sohaning mehnat muhofazasi bilan bog'iq muammolar bir necha bor o'rtaga tashlangan. Lekin bu masalaga yetarli darajada e'tibor berilmagan. Respublikada paxta hosilini ko'paytirish maqsadida turli kimyoiy o'g'itlardan foydalanish aholi salomatligiga ta'sir qilgan. Shu sababli aholi orasida turli kasalliklar tarqalgan. Sug'orish inshootlari barpo etish, ularni ta'mirlash uchun ham aholi majburiy tarzda jaib etilgan.

Аннотация

В данной статье на основе архивных материалов и научной литературы представлена информация о состоянии ирригационной системы, составлявшей основу сельского хозяйства Узбекской ССР в годы советской власти. В статье освещаются изменения в ирригационной системе, связанные с аграрной политикой, проводимой советскими властями. В частности, создание хлопковой монополии привело к дальнейшему расширению ирригационной системы. Ведь приобретение новых земель и создание хлопковых полей привели к расширению ирригационной системы. В результате во многих регионах страны были построены новые и отремонтированы старые каналы. Хотя водные сооружения позволили развить заповедные зоны, эти работы имели и негативные последствия для населения республики. За годы советской власти неоднократно поднимались проблемы, связанные с охраной труда в промышленности. Но этому вопросу не уделялось должного внимания. Использование различных химических удобрений для повышения урожайности хлопка в республике отрицательно сказалось на здоровье населения. Из-за этого среди населения распространялись различные заболевания. Жителей насилино привлекали к строительству и ремонту ирригационных сооружений.

Abstract

In this article on the basis of archival materials and scientific literature the information on the state of the irrigation system, which was the basis of agriculture in the Uzbek SSR during the years of Soviet power, is presented. The article highlights the changes in the irrigation system related to the agrarian policy pursued by the Soviet authorities. In particular, the creation of the cotton monopoly led to further expansion of the irrigation system. Indeed, the acquisition of new land and the establishment of cotton fields led to the expansion of the irrigation system. As a result, new canals were built and old ones repaired in many regions of the country. Although water structures allowed the development of protected areas, these works also had negative consequences for the population of the republic. During the years of Soviet power, problems related to labour protection in industry were repeatedly raised. But this issue was not given due attention. The use of various chemical fertilisers to increase the yield of cotton in the republic had a negative impact on the health of the population. Due to this, various diseases spread among the population. Residents were forcibly involved in the construction and repair of irrigation facilities.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, sug'orish tizimi, paxta yakkahokimligi, Katta Farg'ona kanali, suv ombori, melioratsiya, qishloq xo'jaligi, qo'riq yerlar.

Ключевые слова: Узбекская ССР, ирригационная система, хлопковая монополия, Большой Ферганский канал, водохранилище, мелиорация, сельское хозяйство, заповедные земли.

Key words: Uzbek SSR, irrigation system, cotton monopoly, Big Fergana Canal, reservoir, land reclamation, agriculture, protected lands.

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida yetakchi tarmoqlaridan biri qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Ayniqsa, respublikada Farg'ona viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bo'yicha asosiy o'rinni egallaydi. Shuningdek, mustaqillikdan keyin qishloq xo'jaligidagi kamchiliklarni bartaraf etish va yangi texnologiyalarni olib kirish masalalariga katta e'tibor berilgan. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi bevosita sug'orish tizimiga bog'liqdir.

Qadimdan o'zbek xalqi suvni e'zozlab kelgan. Kanallar qurish, esklarini ta'mirlash, ariqlarni tozalash ishlari doimo hashar yo'li bilan amalgalash oshirilgan. Bu an'ana hozirgacha davom etadi. Yaqin o'tmish – II jahon urushidan so'ng respublika hududida ko'plab yirik kanallar, suv omborlari, kollektorlar qurildi. Ularning barchasi mehnatsevar xalqning qo'li bilan bunyod etildi. XX asrning 50-60 yillarda 10 ta suv ombori qurildi. Jumladan, Buxoro viloyatida Quyimozor, Qashqadaryo viloyatida Chimqo'rg'on, Toshkent viloyatida Toshkent suv omborlari ishga tushirildi. Paxta maydonlarini kengaytirish maqsadida sovet hukumati tomonidan sug'orish inshoatlari tarmog'inining shiddat bilan kengaytirilishi respublika uchun katta oqibatlarga olib keldi. Kanallar, suv omborlari va boshqa suv inshootlari qo'riq yerlarni o'zlashtirish imkonini berdi. Natijada ko'plab aholi o'zlashtirilgan yerburcha ko'chirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sovet davrida yaratilgan asarlarning va tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu yillarda nashr etilgan aksariyat adabiylardan masalaning tarixshunosligi o'sha davrdagi hukumatning ijtimoiy-siyosiy vaziyatidan kelib chiqqan holda mavjud mafkura izmiga bo'yundirildi. Shu bois mazkur davrda respublika qishloq xo'jaligidagi sug'orilish tizimi va yangi yerlarni o'zlashtirilishi tarixi, uning markaz tomonidan rivojlantirilishi bilan bog'liq masalalar faqat bироqlama tarzda ilmiy jihatdan baho berildi hamda talqin etildi.

Masalan, Kurtoglu, E.Injer, F.Smit, J.Bisenovlar izlanishlarida sovet hukmonligi davrida O'zbekistonda, xususan Farg'ona vodiysida irrigatsiya-melioratsiya ishlarning kengaytirilishi, paxta yakkahokimligini yanada kuchaytirilgani, aynan paxtachilikni jadallashtirish maqsadida Markaziy Farg'ona qo'riq yerlarini o'zlashtirish ishlarning amalgalash oshirilishi berib o'tilgan. Jumladan, o'zlashtirish tadbirlarining paxta yakkahokimligi negizida olib borilgani, ayni amaliyotning bevosita Orol dengizi muammosini keltirib chiqqaganligi, fojaning yil sayin jadallahib borgani obyektiv tarzda tadqiq qilingan. Shu bilan birga K.Griffin, J.Tyurman, D.Kandioti va M.Spur tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularda ham sovet hokimiyatining O'zbekiston qishloq xo'jaligida amalgalash oshirgan agrar siyosati mazmun-mohiyati, respublikada yangi yerlarning o'zlashtirilishi va uning paxta yakkahokimligi negizida olib borilishi natijasida Orol fojasini kelib chiqqanligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tahlil etilgan.

Shuningdek, mustaqillik yillarda qishloq xo'jaligi taraqqiyoti, shu jumladan paxtachilik tarixi masalasi tarixchi olimlarning diqqat markazida bo'ldi. Xususan, A.Razzoqov, R.Aminovaning e'lon qilgan ishlari alohida e'tiborga loyiqdirdi[5]. Mazkur asarlarda sovet davlatining qishloq xo'jaligi sohasida o'rnatgan paxta siyosati va sug'orilish tizimidagi o'zgarishlar sovet hukumati manfaatini ko'zlab rivojlantirilganligi ochib berilgan. Bundan tashqari, O.Komilov, D.Alimova, D.Ilyanova, G.Fozilovlarning asarlari ham mavzuni yoritishda katta yordam beradi. Shuningdek, mavzuda qo'yilgan masalalar mohiyatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi[4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonning iqtisodiyoti faqat bir tomonlama rivojlantirildi. Bu siyosatdan ko'zlangan maqsad xomashyo ishlarning chiqarishni yanada ko'paytirish, O'zbekistonning paxtachilik bazasiga aylantirish edi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda markaz hukumati respublikada paxtachilikni taraqqiy ettirishning bosh omili hisoblangan yangi yerlarni o'zlashtirishga e'tiborini qaratdi.

Yuqorida holatlardan kelib chiqib, sovet hukumati sug'orish tizimini rivojlantirishga doir ko'plab qarorlar qabul qildi. Jumladan, 1951-yil 8-fevralda O'z SSR Ministrler Soveti "Irrigatsiya tizimlarini 1951-yil bahoriga tayyorlash to'g'risida"gi qarori chiqdi[3;77]. Shuningdek, 1958-yil 21-aprelda O'zbekiston KP MQ va O'zbekiston SSR Ministrler Soveti "Markaziy Farg'ona qurilishi va qo'riq yerlarni sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha ishlarning kuchaytirish to'g'risida"gi, 1959-yil 22-yanvarda O'zbekiston KP MQ va O'z SSR Ministrler Soveti "1958-yilda Suv xo'jaligi qurilishi va o'zlashtirish rejasining bajarilishi hamda mazkur ishlarning 1959-yildagi rejasi to'g'risida" qarorlarni

TARIX

qabul qildi[3;190]. Shunga qaramay, sovet hukumati tomonidan chiqarilgan qarorlar ijrosi ta'minlanmadı. Ayni vaqtida 1951-yil 8-fevraldagı qarorga ko'ra, viloyatlarda 1951 yil bahoriga qadar irrigatsiya tizimlarini tayyorlash ishlari, ularning holati qayd etilgan edi. O'rganish jarayonida sug'orish va kollektor-drenaj tarmog'ini tozalash respublika bo'yicha 35 foizga bajarilgani aniqlandi. Ayrim hududlarda ishchi kuchi tashkil qilish, ularni jadval bo'yicha taqsimlash ishlari qoniqarli bajarilmagan. Shu bilan birga 1958-yil 21-apreldagi qarorga ko'ra, Namangan viloyatidagi Oxunboboev nomli kanal tizimi bo'yicha ekish uchun tayyorlangan 5000 ga yerdan foydalanilmagani, Farg'ona viloyati Oqoltin massivida tayyorlangan 3,5 mingga yerdan faqat 1,2 mingga ekilgani ham qayd etildi. 1959-yil 22-yanvardagi qaror matnida Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan 17 ming ga dan 14,5 ming ga tayyorlangani qayd etildi.

Lekin, mehnatkash aholi tufayli sovet hukumati respublikadagi yangi yerlarni o'zlashtirishga va ularni ekin maydonlariga aylantirishga astoydil intildi. O'zbekiston SSR viloyatlariga 1951-yil yakuniga qadar 368,0 ming ga hajmda yangi sug'orish tarmog'iga o'tish vazifasi topshirildi. Farg'ona vodiysida ham bu borada keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Xususan, Andijon viloyatida urushdan keyin xalq mehnati evaziga yerning meliorativ holatini yaxshilash uchun 39 ta tuman va tumanlararo kollektorlar ta'mirlandi. Buning natijasida, Zavraq, Niyozbotir mavzeylaridagi qo'riq yerlar o'zlashtirildi. Farg'ona viloyati bo'yicha 1951-yilga kelib 44 ming ga yerning meliorativ holatini yaxshilashga erishildi[4;189]. Shuningdek, O'zbekiston SSRda paxtachilikni yanada rivojlantirish maqsadida ko'plab sug'orish inshootlari, kanallar, suv omborlar va nasos stansiyalari barpo etildi. Respublika miqyosida tuproqning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida, o'zlashtirish jarayonida ayrim sug'oriladigan yerlarda sho'r yuvish tadbirlari ham amalga oshirildi. Xususan, xalqimizning an'anaviy dehqonchilik tajribasi – yerlarning sho'rini yuvish tadbiri, sug'oriladigan suvning isrof bo'lismeni oldini oldi. Shuningdek, fan va texnika yutuqlaridan foydalanib, o'z davrining ilg'or texnologiyalari amaliyatga joriy etildi.

Markaziy Farg'ona hududidagi ekin maydonlarining asosiy suv manbayi Katta Farg'ona kanali hisoblanar edi. Shu boisdan ushbu kanalni ta'mirlash masalalariga ham e'tibor qaratildi. Dastlabki ta'mirlash ishlari Katta Farg'ona kanalida 1956-yildan 1962-yilgacha amalga oshirildi. Natijada, yuqori Norindagi bosh uchastkaning suv berish quvvati sekundiga 98 m^3 dan 150 m^3 ga ko'paydi [7;30]. Katta Farg'ona kanalining ta'mirlash ishlariiga 100 ga yaqin ekskavatorlar va 120 ta boshqa yer kovlaydigan mexanizmlar jalb etildi. Ushbu ta'mirlash ishlari "Ferganavodstroy" va "Andijanvodstroy" davlat qurilish tashkilotlari tomonidan olib borildi. Ayni paytda 1961-yil 12-mayda O'z SSR KP MQ va O'z SSR Ministrlar Soveti Markaziy Farg'onada qo'riq yerlarni o'zlashtirishning borishi to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorda O'z SSR Suv va Qishloq xo'jaligi vazirliklari, Andijon viloyat partiya va ijroiya qo'mitalarining Markaziy Farg'ona yerlаридаги sug'orish bo'yicha barcha ishlarni 1965-yil tugatish taklifi ma'qullandi. Aytish joizki, Farg'ona viloyatda 1953-1961-yillarda 60,6 ming ga yer irrigatsiya-melioratsiya jihatidan tayyorlandi. Yangi yerlarni tayyorlash 1956 va 1957-yillarda qisman pasayib bordi, biroq keyingi yillarda ortish ko'rsatkichi oshdi. Shuningdek, Farg'ona viloyatida yangi yerlarning irrigatsiya va meliorativ jihatdan tayyorlanishi 1953-1961-yillarda turlicha kechdi. Xususan, viloyat bo'yicha yangi yerlarning irrigatsiya va melioratsiya jihatidan tayyorlanishi 1955-yilda 3403 ming ga ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichi 1960-yilga kelib 4 ming 803 ga yerga ko'paydi. Shuningdek, 1957 - yil 18 martda O'zbekiston SSR Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan "Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirish ishlarini kuchaytirish to'g'risida"gi buyrug'i bu boradagi ishlar salmog'ining unumiga xizmat qildi.

O'zbekiston SSRda 1957-1958 yillarda yirik irrigatsiya inshootlaridan biri bo'lmish So'x daryosida Qo'qon gidrouzeli (suv tarmog'i) barpo etildi. Bu esa Qo'qon hududlaridagi 60 ming gadan ortiq sug'oriladigan maydonlarni suv bilan barqaror ta'minlashiga olib keldi [3;189]. Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va xo'jalik jihatdan o'zlashtirish rejasi 1959-1961 yillarda 80 ming ga qo'riq va bo'z yerlarni tashkil etdi. Keyingi davrda ya'ni, 1964-1970 yillarda Markaziy Farg'ona bo'yicha jami 54 ming ga yer irrigatsiya va melioratsiya tomonidan tayyorlandi. Shundan 26,7 ming ga yer Andijon, 27,3 ming ga yer Farg'ona viloyati hissasiga to'g'ri keldi. Markaziy Farg'ona yerlarini o'zlashtirilishi XX asrning 70-yillarida yanada jadallahshdi. Jumladan, 1973-yil 15 noyabrda O'z SSR Ministrlar Sovetining "O'zbekiston KP MQ va O'z SSR Ministrlar Sovetining Markaziy Farg'ona hududida yerlarni qishloq xo'jaligi jihatidan o'zlashtirish, sug'orish, yangi xo'jaliklarini tashkil qilish masalalari bo'yicha yig'ilishi bo'lib o'tdi. Natijada, bu sohaga yanada e'tibor kuchaydi.

Hamda, 1966-1980 yillarda O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligiga qariyb 11 millard so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, shundan 8 milliard 850 mln. rubl suv xo'jaligi qurilishiga sarflandi. Shu davr ichida respublikada qariyb 500 ming ga yangi yer o'zlashtirilib, ekin maydonlariga aylantirildi. Birgina Farg'ona viloyati suv xo'jaligiga 1969-yilda 9 ming 841 rubl mablag' ajratildi[6;29]. O'zbekiston SSRda paxtadan keyingi o'rinda ipak xomashyosi turar edi. Biroq, O'rta Osiyoda yetishtirilgan pilla xomashyosi sifati boshqa davlatlarnikidan nisbatan pastroq bo'lgan[1;120]. Umuman olganda, sovet hukumati davrida O'zbekiston SSR faqat xomashyo yetkazib beruvchi baza sifatida qaralgan edi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sovet hokimiyati yillarda markaz manfaatlаридан kelib chiqib, O'zbekiston SSRda yangi yerlarning o'zlashtirilishi va sug'orish tizimiga katta e'tibor qaratilgan. Qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligi siyosati sharoitida, yanada ko'proq hosil olish maqsadida yangi yerlar o'zlashtirilib, paxta ekin maydonlari barpo etildi va kengaytirildi. Jumladan, ushbu amaliyot ta'sirida sug'oriladigan maydonlar hajmi ekstensiv ravishda qariyb ikki baravarga kengaytirildi, sug'orish tizimi jadal yo'lga qo'yildi, yangi suv inshootlari barpo etildi. Uning atrof muhitga, tabiatga bo'lgan keskin ta'siri e'tiborga olimmadni. Hamda, o'zlashtirish jarayonida, sug'orish tizimida yo'l qo'yilgan kamchiliklar va suv inshootlaridan to'g'ri foydalanmaslik oqibatida, sohada ko'pgina muammolar yuzaga keldi. Biroq bu muammolar yechimi sovet hukumatini aslo tashvishga solmadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimova N. O'zbekistonda ipakchilikning ahvoli va transformatsiya jarayoni. – T.: Dono, 2019,. – 120 bet.
2. Gidrouzel, gidrotexnika inshootlari uzeli – joylashishi va uyg'unlikda ishslash sharoitlari bo'yicha birlashgan gidrotexnika inshootlari guruhi.
3. Комилов А. Ўзбекистонда сүфориш тизими, ривожланиши: ютуқ, муаммо ва оқибатлар. – Тошкент: Академнашр, 2016.
4. Насритдинов К. Фарғона водийсининг сүфорилиш тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2009;
5. Рассаков А. Ўзбекистон пахтачилиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1994.
6. ФВДА, 1151-жамғарма, 1-рўйхат, 105-йигма жилд, 29-варак.
7. Фозилов F. Водийнинг олмос камари. – Фарғона: Фарғона, 1996. – 30 бет.